

KO'CHMA QAHVAXONA TASHKIL ETISH LOYIHASI





Ko'chma qahvaxona tashkil etish loyihasi / F.Rashidov

– Toshkent, 2024.

O'quv qo'llanma "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB va "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ muassisligida tayyorlandi, hamda nashr ettirildi.

Mualliflar:

Rashidov F.I - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi, O'qitish ishlarini tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Loyiha ishtirokchilari:

Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimlari Otamurodov J.Y, Babamuhamedov A.A, Ermatov F.G.

Taqrizchi:

Rizaev N.K - O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi, "Buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrirchi:

Narxujayeva D.B - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimi.

Ushbu o'quv qo'llanma Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi ijro organi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

**O'quv qo'llanma Biznesni Rivojlantirish Banki va
Kichik Biznesni Rivojlantirish Jamg'armasi tuhfasi hisoblanadi.**

Mazkur o'quv qo'llanma kichik biznes tadbirkorlari uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan kichik biznes tadbirkorlari o'z biznes loyihalarini tashkil etish uchun dastur sifatida foydalanishlari mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoat Rivojlanishi Tashkiloti (UNIDO) talablari asosida tuzilgan bo'lib, undan 60411300-"Biznesni boshqarish" (Bakalavriat), 70411301-"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish" (Magistratura), hamda 08.00.15-"Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" (Doktorantura) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar ham o'quv qo'llanma sifatida foydalanishlarim mumkin.

O'quv qo'llanmada loyihani tashkil etish, biznes yuritish, loyihani boshqarish, loyiha menejmenti va marketingi, loyihaning texnik jihatlar, texnologik jihozlar va texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish rejasi, ta'minot rejasi, HR-rejasi, moliyaviy rejasi, loyihaning zararsiz ishlash nuqtasi, loyiha rentabelligi, NPV va IRR koeffitsiyentlari, loyihani o'zini-o'zi qoplash muddati masalalari yoritib berilgan.

© "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB -2024

© "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ - 2024



HURMATLI BIZNES VAKILLARI!

Ma'lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to'liq shakllanib ulgurmadi, desak, adolatdan bo'ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo'yicha yaxlit eko-tizim yaratiladi.

Buning uchun, eng avvalo, "Qishloq qurilish bank"ni "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo'ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga

ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, hududlardagi Kichik biznes markazlarida o'qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, Kichik biznes markazlari ko'magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatiladi. Bunda yangi korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotini realizatsiya qilishga Markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu korxonalarga davlat xaridlari tizimida o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan sotishga ruxsat beriladi.

To'rtinchidan, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga "Biznesni rivojlantirish banki"ga hissador bo'lib kirish huquqi beriladi.

Beshinchidan, yangi tizimni joriy etish bo'yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar soddalashtirilgan tartibda belgilanadi.

Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektini "oyoqqa turg'izish", kamida 25 mingtasini o'rta korxonalarga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o'rne yaratishdan iborat.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz
tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan
uchrashuvdagi nutqidani**

18.08.2023



MUNDARIJA

Moliyaviy termin va atamalarning glossariysi.....	5	5. Marketing konsepsiyasi.....	21
1. Loyihaning maqsadi.....	6	6. Xizmat ko'rsatish rejasi.....	22
2. Loyiha tashabbuskori.....	6	7. HR rejasi.....	22
3. Loyiha strategiyasi.....	6	8. Moliyaviy reja.....	23
4. Xizmat ko'rsatishni tashkil qilish.....	7	9. Loyihani amalga oshirish uchun	
4.1. Mahsulot haqida.....	7	olinadigan kredit shartlari.....	23
4.2. Xom-ashyo haqida.	10	10. Xulosalar.....	24
4.3. Texnologiya va rejalashtirish.....	14	11. Ko'chma qahvaxona tashkil	
		qilish loyihasining hisob-kitob qismi.....	26

MOLIYAVIY TERMIN VA ATAMALARNING GLOSSARIYSI

Atama nomi	Kengaytmasi	O'zbek tilidagi ma'nosi
PV	Present Value	Kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich
NPV	Net Present Value	Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich yillar davomidagi pul oqimlarini joriy qiymati va biznesga kiritilgan sarmoyaning farqi sifatida aniqlanadi.
IRR	Internal Rate of Return	Investitsiyalarning ichki daromadlilik darajasi (IIDD) yoki ichki rentabellik darajasi potensial investitsiyalar rentabelligini baholash uchun moliyaviy tahlilda q'llaniladigan ko'rsatkichdir. IRR diskontlangan pul oqimlarini tahlil qilishda barcha pul oqimlarining sof joriy qiymatini (NPV) nolga tenglashtiradigan diskont stavkasi.
Diskontsiz kummulyativ saldo		Pul oqimini boshqarish va moliyaviy rejalashtirishda q'llaniladigan o'lchovdir. Bu ko'rsatkich pul oqimlarini ma'lum bir muddatga qoldig'ini ko'rsatadi.
Diskontli kummulyativ saldo		Diskontni hisobga olgan holda jamlangan qoldiq - bu diskont stavkasini hisoblaganda har bir kichik davr oxirida to'plangan pulning umumiy miqdorini baholash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.



1. LOYIHANING MAQSADI



1.1. LOYIHANING MAQSADI

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi ko'chma qahvaxona tashkil etishdan iborat. Bundan tashqari, loyihani ishga tushirish orqali respublika aholisining ushbu ichimlikka bo'lgan ehtiyojini qondirish, hamda yangi ish o'rinlari tashkil etish maqsad qilingan.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun, ko'chma qahvaxona tashkil etish maqsadida, umumiy qiymati 150 mln. so'm miqdorida investitsiya (bundan 100 mln. so'm bank krediti) mablag'larini jalb qilish rejalashtirilgan.

Loyiha tashabbuskoriga ushbu loyihani amalga oshirish xalqaro standartlarga javob beradigan ichimlik tayyorlashga imkon beradi.

№	Nomi	Summa	Loyihada ishtirok etish			
			Kredit	%	O'z mablag'lari	%
1	Qahva tayyorlash mashinasi	90 000	90 000	100%	-	0%
2	Savdo muzlatkichlari	20 000	10 000	50%	10 000	50%
	Jami asosiy vositalar	110 000	100 000	91%	10 000	9%
3	Aylanma kapital	31 000		0%	31 000	100%
4	Investitsion davrda kredit foizlari to'lovi	9 000		0%	9 000	100%
	Jami	150 000	100 000	67%	50 000	33%

2. LOYIHA TASHABBUSKORI



2.1. LOYIHA TASHABBUSKORI

Loyiha tashabbuskorining asosiy faoliyat turiga–ko'chma qahvaxona tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan va tashkilot ustaviga muvofiq boshqa faoliyat turlari kiradi.

Loyiha tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab tadbirkorlik subyektini hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori xo'jalik faoliyatini o'zini-o'zi ta'minlash va moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida milliy va chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

Loyihaning joriy faoliyatini boshqarish nafaqat menejment sohasida, balki xizmat ko'rsatish sohasida tajribaga ega bo'lgan direktor tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.



3. LOYIHA STRATEGIYASI



3.1. LOYIHA STRATEGIYASI

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarning asosiy vositalaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosati hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda juda qulay investitsion muhit yaratildi, bu birinchi navbatda, har qanday strategik investor uchun muhim bo'lgan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Kichik biznesni rag'batlantirishning mavjud choralari va kichik biznes loyihalariga imtiyozlar berilishi loyihani yaratishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu loyiha doirasida loyiha tashabbuskorining strategik maqsadi ushbu biznes loyiha uchun qulay hududda ko'chma qahvaxona tashkil etishdir.




4. XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL QILISH



4.1. MAHSULOT HAQIDA

Qahvaxona kafe yoki restorandan kichik va cheklangan assortimentli jamoat taomxonasidir. Asosiy ichimligi qahva bo'lgani uchun shunday nomlanadi. Odatda qahvaxonalarda spirtli ichimliklar sotilmaydi. Ba'zan kichikroq kafelar kafeteriy ham deyiladi.

Islom olamidagi birinchi qahvaxonalar Damashqda (qahveh khaneh - forsha "qahvaxona") paydo bo'lgan. Bu Usmonli qahvaxonalari 15-asrda Arabiston yarim orolida Makkada ham paydo bo'lgan, so'ngra 16-asrda Usmonlilar imperiyasining poytaxti Istanbulga tarqalgan. Qahvaxonalar odamlar qahva ichish, suhbatlashish, shaxmat va shashka kabi stol o'yinlarini o'ynash, hikoyalar va musiqa tinglash, yangiliklar va siyosatni muhokama qilish uchun yig'iladigan mashhur uchrashuv joylariga aylandi. Ular o'zlari jalb qilgan mijozlar turi, erkin va ochiq nutqlari uchun "donolik maktablari" nomini oldilar.



Ko'chma qahvaxona tashkil etish—O'zbekistonda qahva iste'moli to'liqida o'sib borayotgan biznes.

Qahva mashhur ichimlik bo'lib, uni iste'mol qilish har yili ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda qahva iste'mol qilish madaniyati rivojlanmoqda. Ko'proq odamlar uydan tashqarida qahva ichishni afzal ko'rishmoqda. Xalqaro statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, qahva iste'moli har yili 30-50% ga oshib bormoqda. 2023 yilda qahva bozori hajmi 5,5 mln. tonnani tashkil etdi.

Bugungi kunda qahvaning mashhur ekanligining yana bir isboti – aholi jon boshiga iste'mol qilinadigan kofe miqdorining ko'payishi. Yevropa mamlakatlarida har bir kishiga yiliga 6 dan 12 kg gacha kofe to'g'ri keladi.

Qahva iste'moli bozorida hayotning zamonaviy ritmi bilan “o'zingiz bilan qahva” (Собой) formati eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. 2016 yildan boshlab qahva ichimligini o'zi bilan olib ketish uchun xizmat ko'rsatish katta shaharlarga jadal ravishda kirib bordi va hozirgi vaqtda butun dunyoga keng tarqaldi.

Qahva ichimligini sotish nuqtalari hatto kichik shaharlarda ham ildiz otmoqda.

Qahva bozori statistikasi shuni isbotlaydiki, biznes sifatida “o'zingiz bilan qahva” – boshlang'ich tadbirkorga mos keladigan juda foydali g'oya. Boshlash uchun loyiha tashabbuskoriga minimal sarmoya kerak bo'ladi. Biznesni boshlash uchun faol choralar ko'rishdan oldin, loyiha tashabbuskori xizmat ko'rsatishni rejalashtirayotgan bozor joylashuvini to'g'ri o'rganishi va baholashi kerak. Ushbu loyiha doirasida marketing tadqiqotini loyiha tashabbuskori mustaqil ravishda o'tkazishi mumkin. Ushbu loyiha marketing tadqiqoti o'tkazilayotganda loyiha tashabbuskori quyidagilarni o'rganishi kerak:

Ko'chma qahvaxona tashkillashtirilayotganda shahardagi raqobat darajasini o'rganish. Asosiy raqobatchilar kim va ular qayerda joylashgan?



1. 2GIS, Yandex.Maps, Google Maps kabi xizmatlardan faol foydalanish:
 - Ushbu amalni bajarib loyiha tashabbuskori raqobatchilar sonini baholaydi va savdo nuqtasini joylashtiradigan joylarni aniqlaydi;
2. Ko'chma qahvaxona tashkillashtirilayotganda shaharda so'rov o'tkazishi va maqsadli auditoriya to'plangan joylarni aniqlashi:
 - Ushbu tadqiqotni bajarib, loyiha tashabbuskori ushbu biznes g'oyani umuman amalga oshirishga arziydimi yoki yo'qligini tushunadi, potentsial iste'molchilarning ta'mga bo'lgan afzalliklarini bilib olishi va to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, ichimliklar assortimentini shakllantirishi osonroq bo'ladi;
3. Raqobatchilarning taklifini ko'rib chiqish:
 - Ular qanday ichimliklar va qo'shimcha mahsulotlarni taklif qilishadi, qanday qahva turlaridan foydalanadilar, o'z muassasalarini qanday reklama qiladilar? Ushbu tadqiqot loyiha tashabbuskoriga boshqalarning tajribasini hisobga olishni, muvaffaqiyatli yechimlarni qabul qilishni va xatolarni tuzatishni o'rgatadi;
4. Maqsadli auditoriyani portretini yaratish (yoshi, kasbi, qiziqishlari):
 - Bu jozibali taklifni shakllantirishga yordam beradi va iste'molchilarni qayerdan izlash kerakligini ko'rsatadi;
- cheta elda "o'zingiz bilan qahva" segmentida nima bo'layotganini kuzatish:
5. Ushbu tadqiqot natijasida loyiha tashabbuskori yangi g'oyalar va biznes modellarini ko'rib chiqishi mumkin:
 - Ushbu formatdagi savdo o'z-o'zidan qahva ichimligini ko'p miqdorda sotish orqali muvaffaqiyatli bo'ladi. Qog'oz stakanidagi qahva o'rtacha 15 000 so'mni tashkil qiladi, narx



kichik, shuning uchun daromad savdo miqdori hisobiga shakllanadi. Yuqoridagidan kelib chiqib loyiha tashabbuskori piyodalar oqimi ko'p bo'lgan joyni tanlab, ular orasida ushbu ichimlikning maqsadli auditoriyasini aniqlab olishi kerak bo'ladi.

"Ko'chma qahvaxona" nuqtasi uchun eng qulay joylar:

- Jamoat transporti va metro bekatlari;
- Piyodalar o'tish joylari va katta chorrahalar;
- Istirohat bog'lari, maydonlar, piyodalar ko'chalari;
- Biznes markazlari, o'quv muassasalari, savdo markazlari
- Savdo markazlari yoni va biznes markazlarining o'zi;
- Aeroportlar, vokzallar, vokzal yonidagi maydonlar.

Yodda tutish kerak bo'lgan eng muhim narsa: piyodalar oqimi soni asosiy ko'rsatkich emas. Asosiy ko'rsatkich – ko'chma qahvaxona joylashgan joydan qahva sotib olishga tayyor bo'lgan odamlar soni.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun eng foydali joylardan biri universitetlar yaqinida faoliyatni amalga oshirish bo'lib, ushbu joyda faoliyat ko'rsatish loyiha tashabbuskoriga sentyabrdan maygacha bo'lgan davrda talabalar trafigini olish imkonini beradi, ammo yoz oylarida talabalarga beriladigan ta'til tufayli savdoda pasayish kuzatilishi mumkin.

Qahvaxona biznesi tashkil etish uchun birinchi eng qulay joy biznes markazlar hisoblanadi. Bu yerda trafik boshqa joylarga qaraganda ancha past bo'ishi mumkin, ammo xodimlar qahva sotib olishga juda qiziqishadi. Aytish joizki, ta'lim muassasalaridan farqli o'laroq, auditoriya to'lov qobiliyatiga ega va loyihaning o'rtacha tushumini oshiradi. Qahva nuqtasini savdo markazi yaqinida ham, ichkarida ham joylashtirish mumkin. Ikkala holatda ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

4.2. XOM-ASHYO HAQIDA

Tashkilotning uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlaydigan eng mas'uliyatli jihatlardan biri – zarur xom-ashyo bazasi bilan uzluksiz ta'minlash.

Qahva: Bu asosiy xom-ashyo hisoblanadi. Qahva (Coffea) jinsiga mansub 90 dan ortiq o'simlik turlari mavjud bo'lib, ammo ulardan faqat ikkitasi sanoat miqyosida qo'llaniladi: Coffea arabica-Arab qahvasi (qahva doni turi - "Arabica"); Coffea canephora Pierre Ex A. Froehner-Kongo qahvasi (don turi "Robusta").

Arabica qahvaning eng keng tarqalgan turi. Ushbu navning donalari olinadigan Arab qahvasi kofe daraxtining turi dengiz sathidan 700 dan 2000 metrgacha bo'gan hududlarda o'sadi. Donalari odatda cho'zinchoq shaklga ega, silliq yuzaga ega, "S" shaklida bir oz qavsli chiziqqa ega bo'lib, unda odatda yengil qovurilganidan keyin qahva rezavorlarining kuymagan zarralari qoladi (yuvilganda).

Robusta odatda kamroq tozalangan qahva doni navlari hisoblanadi. Shu bilan birga, u ko'proq kofeinni o'z ichiga oladi va ko'pincha espresso aralashmalarida ishlatiladi, bu esa aralashmaning narxini pasaytiradi. Qahva daraxti turi Kongo qahvasi, bu don olinadigan, Arab qahvasiga qaraganda tez o'sadigan va zararkunandalarga chidamli bo'lib, dengiz sathidan taxminan 0 dan 600 m gacha bo'lgan, birinchi navbatda Afrika, Hindiston, Shri-Lanka va Indoneziyaning tropik mintaqalarida o'sadi. Donalar yumaloq shaklga ega, rangi och jigarrangdan kulrang – yashil ranggacha bo'ladi.

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab qahva ishlab chiqarish keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Butun dunyo bo'yicha qahva ishlab chiqarish hajmi 2017 yilda 9,56 million tonnani tashkil etgan bo'lib, shundan 3,16 million tonna Braziliya, 1,77 million tonna Vetnam, 840 ming tonna Kolumbiya, 654 ming tonna Indoneziya, 459 ming tonna Efiopiya, 462 ming tonna Gonduras, 350 ming tonna Hindiston hissasiga to'g'ri keladi

Qahva bozorida reeksportyorlar, ishlab chiqaruvchi mamlakatlardan xom-ashyo sotib oladigan va keyinchalik eksport qilish uchun qayta ishlaydigan (qovurish, maydalash, eriydigan qahvaga qayta ishlash, chakana savdo uchun qadoqlash) mamlakatlar katta ahamiyatga ega. Reeksportning uchdan ikki qismidan ko'prog'i Yevropa Ittifoqi hissasiga, birinchi navbatda Germaniya (720 ming tonna), Belgiya (255 ming tonna), Italiya (190 ming tonna), Niderlandiya (107 ming tonna), Ispaniya (98 ming tonna), Polsha (97 ming tonna) ga to'g'ri keladi. Boshqa yirik reeksportyorlar: AQSh (176 ming tonna), Shveytsariya (112 ming tonna), Malayziya (94 ming tonna), Xitoy (85 ming tonna), Kanada (75 ming tonna), Rossiya (57 ming tonna) hissasiga to'g'ri keladi.



Xalqaro qahva bozori 2017-yilda 30,4 milliard AQSh dollariga baholangan. Eng yirik qahva eksportchilari Braziliya (4,86 mlrd. dollar) hisoblanadi. Vetnam (3,08 mlrd. dollar), Kolumbiya (2,7 mlrd. dollar), Germaniya (2,25 mlrd. dollar) va Shveysariya (1,74 mlrd. dollar), importchilar esa AQSh (6,03 mlrd. dollar), Germaniya (3,5 mlrd. dollar), Fransiya (1,94 mlrd. dollar) va Italiya (1,78 mlrd. dollar).

Qahvaning uchdan bir qismi ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda, xususan Braziliyada (1,32 million tonna), Indoneziyada (282 ming tonna) iste'mol qilinadi. Qahva import qiluvchi eng yirik iste'molchilar Yevropa Ittifoqi (2,5 mln tonna, birinchi navbatda Germaniya, Italiya, Fransiya), AQSh (1,57 mln tonna), Yaponiya (465 ming tonna), Rossiya (271 ming tonna), Kanada (227 ming tonna), Koreya Respublikasi (140 ming tonna), Aljir (133 ming tonna), Avstraliya (110 ming tonna), Saudiya Arabistoni (86 ming tonna), Turkiya (83 ming tonna).



QAHVA ISHLAB CHIQRARISH BOSQICHI

Qahva qovurish

Qovurish yaxshi qahva olishning asosiy bosqichlaridan biridir. Qovurilganda yashil qahva donlari hajmi oshadi va rangi yashildan jigar ranggacha o'zgaradi. Bir kilogramm qovurilgan qahvalarda qahvaning qovurish darajasiga qarab taxminan 4-5 ming dona qahva donlari mavjud. Shunga ko'ra, har bir kilogramm uchun qahva donining qahvani qovurish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi ko'rinadi. Qahvaning ta'mi ko'plab murakkab aromatik kimyoviy birikmalar tufayli hosil bo'ladi. Qovuruvchi qaysi birikmalarning namoyon bo'lishiga qarab, optimal qovurish rejimi tanlanadi. Qoida tariqasida, qovurishning 4 nafar darajasi mavjud. Qovurishning eng oson darajasi odatda Skandinaviya, quyuqroq — Vena, hamda Fransuz qovurish deb ataladi. Qovurishning eng quyuq darajasi Italian deb ataladi. Yevropa qahva an'analari, qoida tariqasida, quyuq qovurilgan qahva espresso tayyorlash uchun ishlatiladi, yengil qovurish darajasi French pressida qahva tayyorlash uchun tez-tez ishlatiladi. Qahvani qovurish paytida akrilamid, furan va furfural hosilalari paydo bo'ladi, ular sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi.



Qahva donlarini maydalash

Qovurilgan donalar qahva maydalagichda yoki tegirmonda maydalanadi. Qahva qanday tayyorlanishiga qarab, donalar zarrachalarning ma'lum hajmiga qadar maydalanadi.

Eriydigan qahvani qayta ishlash

Qahva hosilining bir qismi eriydigan qahva ishlab chiqarishga ketadi.

4.3 TEXNOLOGIYA VA REJALASHTIRISH

Turka (jezva) – qahva tayyorlash uchun chelak shaklidagi idish bo'lib, shu jumladan turkcha (sharqona) qahva hisoblanadi. Ushbu usul uchun eng nozik maydalangan qahva donlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

French-press filtri bilan silindrsimon idish (kolba) ko'rinishidagi press moslamasi. Maydalangan qahva kolbaga solinib, issiq suv quyiladi va 3-5 daqiqa davomida turib oladi, shundan so'ng french-pressning pistonini tushiriladi va tayyor ichimlik stakanlarga quyiladi.



Filtrli qahva har xil turdagi filtrlar yordamida tayyorlanadi. Maydalangan qahva filtrga solinib issiq suv bilan quyiladi. Gravitatsiya ta'siri ostida suv qahva kukuni orqali oqadi va tayyor ichimlik filtr ostidagi idishga quyiladi.

Filtrli qahva tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish uchun tomchilatib kofe qaynatgich ishlatiladi.

Geyser kofe qaynatgich-suv quyiladigan qurilma, qahva maxsus bo'linmaga quyiladi va isitish yuzasiga o'rnatiladi. Ichimlik bosim ostida ko'tarilgan bug' suvini maydalangan qahva bo'linmasidan o'tkazish orqali olinadi.

Kapsula qahva qaynatgich – asosan espresso qahvasi tayyorlash uchun qo'llaniladi. Qahva qaynatgich zaryadlangandan so'ng, qahva kapsulasi teshiladi va 15 dan 19 bargacha bosim ostida qopqoqdagi teshiklarga issiq suv kiradi, shuningdek, qahva qaynatgichni doimiy tozalash zaruratini yo'q qiladi.

Kimyoviy tarkibi

20-asrning boshlarida nemis kimyogari Erdmann qahva donlar qahvaga lazzat beradigan yog'ni ajratib oldi va uni "kafeol" deb atadi. Erdmann kafeolning o'nga yaqin komponentini ajratib olishga muvaffaq bo'ldi. 1967 yilda amerikalik olimlar F.Gotshi va M. Vintergod molekulyar distillash, spektrofotometriya va gaz xromatografiyasi yordamida 220 dan ortiq komponentlarni ajratib olishdi. Qahva tarkibida 1000 dan ortiq kimyoviy birikmalar mavjud bo'lib, ularning molekulyar va fiziologik ta'siri oziq-ovqat kimyosi bo'yicha faol tadqiqot sohalaridir. Qahvalarda kimyoviy birikmalarni aniqlashning ko'plab usullari mavjud.

Kimyoviy birikmalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar organik kimyoning asosiy toifalari (oqsillar, uglevodlar, lipidlar va boshqalar) kabi taksonomiyaning tez-tez uchraydigan sohasidir. Qahvaga lazzat va ta'm beradigan birikmalar orasida yashil qahvalarda mavjud bo'lgan 300 ga yaqin kimyoviy moddalar va qovurilganidan keyin qahvalarda mavjud bo'lgan 850 dan ortiq moddalar topilgan. Qahvaning kimyoviy murakkabligi turli xil sharoitlarda yuzaga keladigan o'zaro reaksiyalarning ko'pligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, qahvalarda xlorogen kislotalar, gidrosiklik kislotalar, kofein va melanoidinlar kabi antioksidantlar mavjud.

Alkaloidlar va kofeilxin kislotalari kabi kimyoviy guruhlar keng tarqalgan insektitsidlardir; ularning kofe sifati va ta'miga ta'siri ko'pgina tadqiqotlarda o'rganilgan.

Arabika qahvasining tarkibiy qismlari sonining o'rtacha qiymatlari quruq moddaga nisbatan quyidagi jadvalda keltirilgan.

Moddalar	Yashil qahva (%da)	Qovurilgan qahva (%da)
Saxaroza	8	0
Polisaxaridlar	46	35
Lignin	3	3
Yoglar	16	17
Oqsillar	11	7,5
Xlorogen kislota	6,5	2,5
Kofein	1,2	1,3
Trigonellin	1	1
Kul	4,2	4,5
Karamelizatsiya, kondensatsiya mahsulotlari	-	28,5

Yaxshi jihozlangan qahvaxona muvaffaqiyatli ishlash ning kalitidir

Qahva mashinasi – qahva va boshqa issiq ichimliklar tayyorlaydigan avtomatik mashina. Bunday mashina odatda bir necha navli qahva, choy (eruvchan konsentratlardan ham, tabiiy barglardan ham), sut va kakaoni eruvchan konsentratlardan tayyorlashi mumkin.

Hayotning zamonaviy sur'ati shunday tuzilganki, ko'p odamlar o'z hayotlarini kuniga bir necha finjon qahvasiz tasavvur qila olmaydilar. Ushbu tetiklantiruvchi ichimlik odamni kunning boshida ish holatiga keltirishi mumkin. Qahva ichimligi butun dunyo bo'ylab millionlab muxlislarni jalb qildi, ammo bu ichimlikni hamma joyda sotib olish mumkin emas.



Boshlash uchun loyiha tashabbuskoriga tabiiy qahva donlaridan qahva ichimligi tayyorlaydigan qahva mashinalari kerak bo'ladi. Bunday qurilmalar sut, qaymoq, sirop, shakar va boshqa tarkibiy qismlar uchun idishlar bilan jihozlangan bo'lib, ular loyiha tashabbuskoriga turli xil ichimliklar tayyorlashga imkon beradi. Ushbu qahva mashinalari quyidagi qahvalarni tayyorlashga qodir:



Amerikano



Kapuchino



Espresso



Latte



Oq va qora
shokoladli mokka



Issiq shokolad



Kakao

5. MARKETING KONSEPSIYASI



Zamonaviy dunyoda loyiha faqat iste'molchilarning talablarini e'tiborsiz qoldirmasa, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Talablarni tadqiq qilish va mijozlarning maksimal talablarini qondirish samaradorligini oshirish uchun yangi mijozlarni qo'lga kiritishni hamda mavjud mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni, mahsulot yetkazib berishni davom ettirmoqchi bo'lgan tadbirkor, ular haqiqatan ham nimani xohlashlarini va ularga nima kerakligini bilishi kerak.

Bozorni segmentatsiya qilish turli xil obyektlar bo'yicha amalga oshiriladi, ammo marketingda eng katta e'tibor iste'molchilarning xohishlariga qaratiladi. Shu bilan iste'molchilar tashkilotning marketing harakatlariga turli xil qarashlari bo'yicha bozorni segmentatsiya qilishi kerak bo'ladi.

Bozor segmenti – o'xshash afzalliklarga ega bo'lgan, bir xil xususiyatlarga xos va marketing takliflariga bir xil javob beradigan iste'molchilar majmui.

Taklif tuzilmasidan kelib chiqib, bozorning quyidagi makrosegmentlarini ajratish kerak:

- iste'mol bozori
- sanoat bozori.

Iste'mol bozori. Bizning ushbu segmentdagi iste'molchilarimiz respublikaning turli yoshdagi, har xil daromad darajasi va oilaviy ahvoli turlicha bulgan barcha aholisidir.

O'zbekiston aholisi soni bo'yicha MDH mamlakatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. BMT Aholishunoslik jamg'armasining jahon reytingida respublika 41-o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 2024-yil 22-aprel holatiga 37 milliondan ortiq kishini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, aholi daromadlari o'sishda davom etmoqda.

O'zbekiston bozorida raqobatchi bo'lgan ko'p sonli mahalliy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, biroq ichki va tashqi bozorda ushbu mahsulotga talab yuqori. Shuning uchun keskin raqobat kuzatilmaydi.

6.XIZMAT KO'RSATISH REJASI



Loyihani samarali amalga oshirish uchun loyiha tashabbuskori quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi:

1. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;
2. Loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini, moliyaviy hisob-kitoblarini va marketing strategiyalarini ishlab chiqish;
3. Loyiha tashabbuskori yuridik shaxs sifatida tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
4. Uskunalar yetkazib beruvchi, uskunalarni o'rnatuvchi, xom-ashyo va boshqa mol yetkazib beruvchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;
5. Kredit tashkilotlari bilan muzokaralar o'tkazish va moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
6. Loyihani moliyalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish va bankka taqdim etish;
7. Bank tomonidan moliyalashtirishning ochilishi;
8. Xizmat ko'rsatish joyi ta'mirini yakunlash, uskunalarni o'rnatish, xom-ashyolarni qabul qilib olish;
9. Xizmat ko'rsatishni boshlash;
10. Sotishni tashkil qilish.

Loyiha tashabbuskori loyihani amalga oshirishning birinchi yildan 75% dan ishlab chiqarish quvvatlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishni va loyihani amalga oshirishning beshinch yiliga kelib ishlab chiqarish quvvatini kamida 100% gacha yetkazishni rejalashtirishi zarur.

Yillar bo'yicha quvvatlarni o'zlashtirish koeffitsiyenti:

	1 yil	2 yil	3 yil	4 yil	5 yil
Quvvat o'zlashtirilishi, %da	75%	80%	85%	90%	100%

7.HR REJASI



